



ЭХТИРОМ

Chustiyning buyukligi, kitobim chiqsin deya xudosiz zamona korchalonlarining qarshisida tiz cho'kmaganidir. Bizga o'xshab din kuchaysa dinnning arig'ini chopib, xudosizlik kuchaysa araq ichib zamonasiga yaltoqlanmagan. Chustiy aruz vaznida o'lmas asarlar yaratibgina qolmay, har qanday sharoitda ham o'z e'tiqodiga sodiq qolib, nafsini tizginlay oldi. Vaholanki o'z nafsini yenga olish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Chustiy domlanning kitoblarini nashr qildirmay uni o'gaylashtirgan jamiyatda tom - tom kitob chiqargan shoxerlar nomi va "Asar"lari unutilib ketdi. Ammo Chustiy domlanning yozgan g'azallari, masnaviylari hamon tillardan tushmaydi. Chustiy domlani dindor deb unga kommunistik jamiyat o'rden - medallar, unvonlar bermadi. O'sha unvonlari o'rden - medallar olgan kimsalarning olgan unvonlariyu o'rden medallari qayda hozir? Chustiy o'sha qattol zamonlarda bizga o'xshab chet elga qochib, xavfsiz joyga berkinib olib emas, vatanda turib o'z so'zini yashirmay baralla ayta oldi. Bugun Chustiy yozgan ajoyib g'azallar va masnaviylar xalqimiz yuragida sirtiga oltin suvi yuritilgan medal yo o'rdendek emas, ikki danyoda qadrini yo'qotmaydigan bebaho olmoslar singari porlayotir. Quyida Chustiy hazratlarining bitta g'azalini hukmingizga havola qilamiz.

Xoldor Vulqon.

Chustiy



Durdonalardan ham

**Xaqiqiy oshino paydo bo'lar begonalardan ham,
Biroq begona paydo bo'lg'usi hamxonalardan ham.**

**Aql konida bir so'z bor, ki bozori haqiqatda,
Uning har jumlasini qimmat turar durdonalardan ham.**

**Dedi Laylo mening ishqimni hech kim ayb etolmaydur,
Chiqar oqil kishi Majnun kabi devonalardan ham.**

**Fido bo'lg'il dedi xalqim, dedim ming marta bo'lsamchi.
Sadoi dora kallosin tikib mardonalardan ham...**

